

YANGI O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI JADAL VA MUVOZANATLI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Jo‘rayeva Nodiraxon Qurbonovna

FarDU, Jahon va mintaqa iqtisodiyoti kafedrasi mudiri.

iqtisodiyot fanlari falsafa doktori

tel: +99890407002

el.pochta: nodiraxonnum1@gmail.ru

Tojiboyev Shukurullo Sheraliyevich

FarDU, Inson resurslarini boshqarish

yo‘nalishi, 24.135-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada «Yashil iqtisodiyot» o‘zi nima degani va uning qanday foydali va unumli taraflari mavjudligi, uning hayotimizda qanday o‘rni borligi batafsil yoritilgan. Qolaversa, yashil iqtisodiyotning ko‘zga tashlangan sektorlari va ushbu sektor tarmoqlarining texnologiyalarini «Yangi O‘zbekiston»ga jalb qilish, ilm-fan yutuqlari asosida yashil iqtisodiyotni jadal rivojlantirish to‘g‘risida fikr-mulohazalar o‘z aksini topgan. Maqolada yurtboshimiz tomonidan 2030-yilgacha mamlakatimizda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va bu orqali iqtisodiy holatni o‘rta darajadan yuqori darajaga olib chiqish to‘g‘risida bajarilayotgan va bajarilishi rejalashtirilgan islohotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. Tahlil qismida yashil iqtisodiyotning, aniqrog‘i qayta tiklanadigan energiyaning asosi bo‘lgan elektr energiyasini yaratishda yo‘lga qo‘yilgan mavjud quyosh panellari va shamol generatorlari tahlili yoritilgan va yurtimizda ekologik toza muhitni yaratish yo‘llari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, qayta tiklanadigan energiya, modernizatsiya, yashil transport.

I. Kirish

«Yashil iqtisodiyot», «Yashillik darajasi» degan iboralar butun dunyo bo‘ylab keng muhokamaga aylanib bormoqda. Ushbu mulohazalar yurtimizda ham keng ko‘lamda amalga oshmoqda. O‘zbekistonning 2030-yilga qadar mo‘ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta‘minlashda barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarini o‘zaro muvofiqlashtirish murakkab vazifa bo‘lib bormoqda. Ushbu vazifani bajarishda yurtimizda keng ko‘lamda ishlar olib borish reja qilib olindi va asta-sekinlik bilan amalga oshirilib borilmoqda. Mamlakatimizda 2025-yilni «Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili» deb nomlanishi ham bejiz emas albatta.

II. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mamlakatimizda «Yashil iqtisodiyot» asosida barqaror rivojlanishni ta‘minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 4-oktyabrda tasdiqlangan «2019-2030 yillarda o‘zbekiston Respublikasini «Yashil Iqtisodiyot»ga o‘tish strategiyasi» muhim dasturil amal hisoblanadi. «Yashil Iqtisodiyot»ga o‘tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste‘mol qilish ham kiradi. Ushbu belgilangan indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. Aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy,

arzon va ishonchli elektr ta'minotidan foydalanish ta'minlanadi. Ekologik jihatdan yangilangan yoqilg'i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi.⁶

Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarnig iqtisodiyotiga nazar solsak, asosan «yashil iqtisodiyot»ning tarmoqlari rivojlanganligiga duch kelamiz. Bularga AQSH, Yevropa Ittifoqi, Germaniya, Koreya Respublikasi va boshqa rivojlangan davlatlar misol bo'la oladi. Rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlarda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda «Yashil iqtisodiyot»ning o'rni beqiyos deb baholangan. MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) mamlakatlarida (Rossiya, Qozog'iston, va Belarussiya Respublikasi) ham «Yashil iqtisodiyot»ni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Hususan o'zbekistonda ham.⁷ O'rganilgan manbalar shuni ko'rsatadiki, Yashil iqtisodiyot bu - ekologik barqaror va ijtimoiy adolatli iqtisodiy model bo'lib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik va iqlim o'zgarishining oldini olishga qaratilgan faoliyatdir. Qisqacha qilib aytganda an'anaviy iqtisodiyotdan farqli ravishda o'sishni atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda, cheklangan resurslardan oqilona foydalangan holda eng maksimal darajada naflilik olishga qaratilgan islohot. Bu yo'nalish kelajak uchun juda muhim tarmoq ham hisoblanadi. Ushbu tarmoqning asosiy yo'nalishlari qayta tiklanadigan energiya manbalaridir.

Qayta tiklanadigan energiya manbalari quyidagilardan iboratdir:

- Quyosh energiyasi – ekologik toza va cheksiz manba;
- Shamol energiyasi – barqaror va alternativ manba;
- Gidroenergetika – daryolar va dengiz to'lqinlaridan energiya oladi;
- Biogaz va bioyoqilg'i – organik chiqindilardan energiya ishlab chiqarish.

III. Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida umumiy iqtisodiy adabiyot hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari, ularning yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan. Mavzuni o'rganish jarayonida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda ma'lumotlarni tizimlash bo'yicha mahsus yondoshuvlar, ya'ni taqqoslash, nazariy va amaliy materiallarni jamlash hamda tizimli tahlil kabi usullar qo'llanilgan.


IV. Tahlil va natijalar

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy energiya manbalari (neft, gaz, ko'mir) atrof muhitga katta zarar yetkazadi. Shu sababli yashil iqtisodiyot yuqorida sanab o'tilgan energiya manbalariga katta e'tibor qaratadi. Ushbu yo'nalishlarni yurtimizdagi faoliyatiga e'tibor bersak, o'zbekistonda quyosh

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi "2019-2030 yillar davrida o'zbekiston respublikasining "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 4477-son qarori.

⁷ Yashil iqtisodiyot: Darslik. 2-nashr, qayta ishlangan va to'ldirilgan./ i.f.d., prof. A.V. Vaxobovning umumiy tahriri ostida.

energiyasidan foydalanish soʻnggi yillarda sezilarli darajada rivojlanmoqda. Quyosh elektr stansiyalari mamlakatimizning turli hududlarida qurilib, foydalanishga topshirilmoqda. Jumladan, «Navoiy Nur» Quyosh Elektr Stansiyasi. Bu Oʻzbekistondagi birinchi yirik quyosh elektr stansiyasi boʻlib, Navoiy viloyatida joylashgan. Stansiya 268 gektar maydonda barpo etilgan va 292 mingta quyosh panelidan iborat. Umumiy quvvati 100 MVt boʻlib, yiliga 260 million kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Bu esa oʻrtacha 31 ming oilaning elektr energiyasiga boʻlgan talabini qondiradi. loyiha Birlashgan Arab Amirliklarining Masdar kompaniyasi tomonidan amalga oshirilgan. Yana bir yirik loyuhalaridan biri «Buxoro» Quyosh Elektr Stansiyasi. Buxoro viloyatida qurilgan ushbu stansiya ham 100 MVt quvvatga ega. loyiha doirasida yuqori samarali quyosh panellari oʻrnatilib, yiliga katta hajmda elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Bu esa mintaqaning energiya mustaqilligini oshirishga xizmat qiladi. Shamol elektrostansiyalari haqida gap ketganda esa yuturtimizga shamol generatorlarini olib kelish va 2030 – yilga qadar foydalanishga topshirilishi reja qilinmoqda. Yurtimizning janubiy-sharqiy qismlarida kuchli shamol yoʻli boʻlgani sababli ushbu shamol generatorlaridan samarali elektr energiyasi olish koʻzda tutilmoqda. Hozirda yurtimizda mavjud boʻlgan shamol elektr stansiyalaridan biri «Yubileyniy» shamol elektr stansiyasidir. Ushbu shamol elektr stansiyasi Toshkent viloyatida joylashgan boʻlib, yillik elektr ishlab chiqarish hajmi 0,75 MVt quvvatga teng. Ushbu koʻrsatgich unchalik katta boʻlmasada lekin toza va arzon elektr energiyasi olingani bizni xursand qiladi.




1-rasm. 300w quyosh paneli uchun qoʻllanma

Qurilayotgan va rejalashtirilayotgan shamol elektr stansiyalariga esa Zarafshon shamol elektr stansiyasini kiritishimiz mumkin. Ushbu loyiha Birlashgan Arab Amirliklarining «Masdar» kompaniyasi tomonidan Navoiy viloyatining Tomdi tumanida qurilmoqda. Dastlabki quvvati 500 MVt boʻlib, kelgusida 1,5 GVtga yetkazilishi rejalashtirilgan.⁸

⁸ Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot. Darslik. "Ma'rifat", 2024.

Qorao‘zak shamol elektr stansiyasi esa Saudiya Arabistonining «ACWA Power» kompaniyasi tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasining Qorao‘zak tumanida qurilishi rejalashtirilgan.⁹ Mazkur Stansiya 1,5 GVt quvvatga ega bo‘ladi.: «ACWA Power» kompaniyasi tomonidan Buxoro viloyatining Peshku tumanida 500 MVt quvvatga ega bo‘lgan Jonkeldi shamol elektr stansiyasi va G‘ijduvon tumanida 500 MVt quvvatga ega bo‘lgan Bosh shamol elektr stansiyasi qurilishi ham rejalashtirilgan. Xitoyning «Liaoning Lide» kompaniyasi tomonidan Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumanida 600 MVt quvvatga ega bo‘lgan g‘ijduvon shamol elektr stansiyasi qurilishi



rejalashtirilganligi ham yuqotidagi islohotlarning natijasi hisoblanadi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.¹⁰

2-rasm. Shamol generatori ishlash sxemasi

2-rasmda shamol generatori ishlash sxemasi ko‘rsatilgan bo‘lib, shamol kuchi generatorni aylantiruvchi parraklarni harakatga keltiradi. Natijada, stator chulg‘ami tufayli mexanik energiya elektr tokiga aylanadi. Bundan tashqari, aylanish kuchi yordamida batareyada saqlanadigan elektr energiyasi ham hosil bo‘ladi. Havo oqimi qanchalik kuchli bo‘lsa, parraklar shunchalik tez aylanib, ko‘proq energiya ishlab chiqaradi. Shamol generatori ham juda samarali bo‘lib, bu orqali ham arzon, ham sifatli energiya olinadi. Yurtimizda ushbu qurilmani ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali katta hajmdagi ekologik toza energiya olish mumkin. Qolaversa, yashil iqtisodiyot ifloslanishni kamaytirishga qaratilgan texnologiyalarni ham qo‘llaydi. O‘zbekistonda atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish bo‘yicha bir qancha zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlar joriy etilmoqda. Quyida asosiy yo‘nalishlar keltirilgan:

- Havo ifloslanishini kamaytirish texnologiyalari – zavod va fabrikalarda filtrlar o‘rnatish. Ushbu tizim «Filtratsiya» tizimi deyiladi. Korxonalarda chiqindi gazlarni

⁹ M.T.Asqarova, J.J.Jamolov, X.S.Xadjayev. Yashil iqtisodiyot. (Darslik). — T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi»

¹⁰ O‘quv qo‘llanma/Mavlonov.SH.SH./T-"MAKON SAVDO PRINT"

tozalash uchun zamonaviy filtrlar oʻrnatilmoqda (masalan, elektrostatik filtrlar, siklonlar va biologik filtrlar);

- Sanoat chiqindilarini kamaytirish - Metallurgiya va kimyo zavodlarida chiqindi gazlarni qayta ishlash texnologiyalari joriy qilinmoqda;

- Chiqindilarni qayta ishlash – plastik, shisha, qogʻoz va boshqa materiallarni qayta ishlash orqali ekologik yukni kamaytirish, Respublika boʻylab zamonaviy chiqindilarni qayta ishlash zavodlarini ishga tushirish;

- Suv resurslarini tejash va toza saqlash texnologiyalari – tomchilatib sugʻorish texnologiyalari va ifloslangan suvlarni tozalash tizimlarini joriy etish va katta shaharlar va sanoat korxonalarida biologik va membranali filtratsiya tizimlarini joriy etish.

Yashil iqtisodiyotning avtomobil sanoatidagi oʻrni ham hozirgi kunda yuqori koʻrsatkichni koʻrsatmoqda. Ichki yonuv divigitelida harakatlanuvchi anʼanaviy avtomobillar atmosferaga koʻp miqdorda CO₂ ajratadi. Yashil iqtisodiyot esa quyidagi transport turlarini rivojlantirishni talab qiladi:

- Elektromobillar – elektr energiyasida harakatlanuvchi mashinalar;
- Velosiped va piyodalar yoʻlaklari – uglerodsiz transport muqobili;
- Jamoat transportini modernizatsiya qilish – tramvay va metro kabi ekologik toza transportlarni rivojlantirish.

Yashil iqtisodiyotdagi ushbu ekologik toza transport vositalarining afzalliklarini koʻrib chiqadigan boʻlsak, Yashil transportning birinchi navbatda ekologik tozaligidir. Ushbu transport vositalari elektr energiyasida harakatlanganligi sababli atmosferaga zararli CO₂ gazlarini chiqarmaydi va havoning ifloslanishini kamaytirib, inson salomatligiga zarar yetkazmaydi. Ushbu transport vositalarining keyingi afzalligi esa energiya samaradorligidir. Kamroq yoqilgʻi sarflovchi yoki qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishi hozirgi kundagi asosiy koʻzga tashlangan tarafi hisoblanadi. Elektr va gibrid avtomobillar yoqilgʻiga nisbatan arzonroq energiya sarflaydi. Asosiy jihati shundaki, elektr energiyasi ekologik toza resurs hisoblanadi. Iqtisodiy tomonlama qarasaq, qimmat yoqilgʻi sarfidan mustaqil boʻlish imkonini beradi. Qolaversa hukumat tomonidan subsidiya va soliq imtiyozlari berilishi mumkin. Bundan tashqari uzoq muddatga ekspluatatsiya xarajatlari kam boʻladi (kamroq texnik xizmat talab qiladi). Innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishi ham istemolchilar uchun qulaylikni yaratadi. Sunʼiy intellektning yashil transportlar bilan uygʻunlashuvi ham hozirda keng amalga oshmoqda.

Shovqinsiz va qulay ishlashi yashil transportlarning yana bir karra foydali tarafi hisoblanadi. Elektr transport vositalari ichki yonuv dvigatelli mashinalarga nisbatan deyarli shovqinsiz ishlaydi. Yaxshi tezlanish koʻrsatkichlari bilan qulaylikni oshiradi. Yashil iqtisodiyotdagi mashinalar kelajakda yanada rivojlanib, ekologiya va iqtisodiyotga katta foyda keltirishi kutilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xitoy Xalq Respublikasiga 2024-yil yanvar oyida amalga oshirgan davlat tashrifi davomida, mamlakatimizda elektromobil va gibrid avtomobillar ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyish boʻyicha Xitoyning yetakchi «BYD» (Build Your Dreams) kompaniyasi bilan umumiy qiymati \$500mlnlik muhim kelishuvlarga erishildi. Ushbu tashrif chogʻida Prezident Shavkat Mirziyoyev «BYD» kompaniyasining bosh qarorgohi va texnologiyalar markaziga tashrif buyurib

shartnoma imzoladi va Jizzax viloyatida gibrid va elektr avtomobillarni birgalikda ishlab chiqarishga start berdi.

Mazkur hamkorlik doirasida «BYD» kompaniyasi bilan quyidagi asosiy yoʻnalishlarda kelishuvlar imzolandi:

Ishlab chiqarish quvvati: Jizzax viloyatida gibrid va elektr avtomobillar ishlab chiqarishni tez fursatda yoʻlga qoʻyish, keyingi bosqichlarda esa ishlab chiqarish quvvatini yiliga 300 ming donaga yetkazish rejalashtirilgan;

Mahalliyashtirish: Mahsulot tannarxini kamaytirish maqsadida butlovchi va ehtiyot qismlarni mahalliyashtirish loyihalarini amalga oshirish, shuningdek, avtomobillarni uchinchi mamlakatlar bozoriga eksport qilishni tashkil etish masalalariga alohida eʼtibor qaratilgan;

Transport infratuzilmasi: «BYD» elektrobuslarini Oʻzbekistonga yetkazib berish va ularga xizmat koʻrsatish boʻyicha muhandislik-servis markazlarini ochish rejalari ham qoʻllab-quvvatlangan.

Ushbu kelishuvlar Oʻzbekiston avtomobil sanoatini rivojlantirish, ekologik toza transport vositalarini joriy etish va yangi ish oʻrinlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

V.Xulosa

Yurtimizda yashil iqtisodiyotning qolgan yoʻnalishlarida ham modernizatsiyalash ishlari olib borilmoqda. Qolaversa chet ellik investorlar bilan yirik shartnomalar imzolanmoqda va yildan-yilga koʻpayib bormoqda. Yuqorida koʻrsatilib oʻtilgan qayta tiklanuvchi energiyalardan foydalanish orqali qayta tiklanmaydigan resurslar sarfi anchagina kamayadi va bu «Yangi Oʻzbekiston» uchun juda muhim natijalar hisoblanadi. Yangi Oʻzbekistonni yashil iqtisodiyotda barpo etish va ekologik toza hayotni bardavom qilish, kelajagimiz boʻlgan yosh avlodlar uchun behisob boylik sanaladi.

VI.Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi «2019-2030 yillar davrida oʻzbekiston respublikasining «Yashil iqtisodiyotga oʻtish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi 4477-son qarori.
2. Vaxobov A.V., Xojibakiyev Sh.X. Yashil iqtisodiyot: Darslik. 2-nashr, qayta ishlangan va toʻldirilgan.
3. Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot. Darslik. «Ma'rifat», 2024.
4. Asqarova M.T., J.J.Jamolov, X.S.Xadjayev. Yashil iqtisodiyot. Darslik. — T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2022
5. Mavlonov.SH.SH. Oʻquv qoʻllanma. T-»MAKON SAVDO PRINT» 2024